



**NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**NAVOIY  
VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQRISHI**

*2022- YIL YANVAR-APREL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)*




## Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-aprel oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimiz korxonalaridan 27 351,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 105,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 79,6 % ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 20,0 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 2,3 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 30,9 % ga o'sishiga xizmat qildi.


Shuningdek, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 15,7 % ga pasayish kuzatildi.

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 931,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,4 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-aprel

### Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-aprel

FHI,% da



2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21 775,0 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,6 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-aprel


83,2 %

2022- yil yanvar-aprel

79,6 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,9 % (7,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 84,1 % (86,3 %) va quyi texnologiyalisi – 5,7 % (6,3 %) ni tashkil etdi.

■ 2022- yil ■ 2021- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 2,3 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 67,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 77,6 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,9 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,9 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 95,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 2,6 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 8,1 % (2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 99,4 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

#### Kalsiy xlorid




#### Suvsiz ammiak




#### Sement



#### Azot



#### Yogurt



#### Yumshoq bug'doy va spelta uni






2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 258,8 ming tonna suvsiz ammiak (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 143,4 % ga o'sgan), 78,4 ming tonna azot mochevina (karbamid) (193,9 %), 3,0 ming tonna kalsiy xlorid (293,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	2021- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan o'sish, % da
Portlandsement, ming tonna.	1 225,0	813,1	66,4
Mochevina (karbamid), ming tonna azot.	40,4	78,4	193,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	21 287,0	20 198,6	94,9
Sirka kislotasi, tonna	852,0	1 383,0	162,3
Kislorod, ming m <sup>3</sup> .	46,6	54,5	116,9
Suvsiz ammiak, ming tonna,	180,5	258,8	143,4
Kalsiy xlorid, ming tonna.	1,0	3,0	293,5
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna	1 727,0	1 915,0	110,9

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 77,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,9 % ni tashkil etdi, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 77,6 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi esa, 108,9 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 16 886,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 68,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 86,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 181,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 109,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,6 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 561,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 145,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 89,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 412,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % ni, fizik hajm indeksi esa 102,3 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,9 %, fizik hajm indeksi 103,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 203,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 6,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 158,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,0 % ni, fizik hajm indeksi 137,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 747,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.






**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 629,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,9 % ni) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 130,9 % ni tashkil etdi.




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	3 612,0	4 104,1	492,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 775,8	1 989,5	213,7

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ini) tashkil etdi.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-aprel	2022- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	16 908,2	19 781,2	2 873,0
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar, tonna	15 256,0	18 416,8	3 160,8

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 120,7 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 117,0 % ni tashkil etdi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 204,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil  
yanvar-aprel

44,6 %

2022- yil  
yanvar-aprel

44,7 %

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil  
yanvar-aprel

55,4 %

2022- yil  
yanvar-aprel

55,3 %


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,01 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 0,01 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumaniga to'g'ri kelib 25,7 % ni, Navoiy shahri 22,5 % ni, Qiziltepa tumani 12,2 % ni, Xatirchi tumani 11,9 % ni hamda Navbahor tumani 8,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (108,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Karmana tumanida (140,7 %) hamda Navbahor tumanida (121,8 %) qayd etildi.

**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

*Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi to'g'ri kelib Karmana tumanida 25,7 % ni shuningdek, Navoiy shahriga 22,5 % ni, Qiziltepa tumanida 12,2 % ni, Xatirchi tumanida 11,9 % ni tashkil etdi.*



**957,9** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-aprel

**1 135,3** mlrd. so'm

2021- yil yanvar-aprel

**1 204,9** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020- yil

103,6 %

2021- yil

104,5 %

2022- yil

108,0 %

**Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Karmana tumanida to'g'ri kelib, 31,0 % ni shuningdek, Navoiy shahrida 24,8 % ni, Nurota tumanida 8,7 % ni, Navbahor tumanida 8,6 % ni tashkil etdi.

**551,1** mlrd. so'm


2020- yil yanvar-aprel

**653,3** mlrd. so'm




2021- yil yanvar-aprel

**666,5** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi






o'sish sur'ati

mlrd. so'm




**Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 19,7 % ni shuningdek, Karmana tumani 19,1 % ni, Qiziltepa tumani esa 17,6 % ni tashkil etdi.



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



**Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari**

*Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to'g'ri kelib 85,9 % ni, shuningdek, Karmana tumani 9,8 % ni, Qiziltepa tumani esa 1,3 % ni tashkil etdi.*

**Navoiy viloyati**

2020- yil

17 332,3 mlrd. so'm

2021- yil

22 475,4 mlrd. so'm

2022- yil

27 351,9 mlrd. so'm



2020- yil


101,0 %

2021- yil

109,9 %

2022- yil

105,8 %




FHI, % da

mlrd. so'm

**Navoiy vloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**


Bugungi kunda viloyatimizda 3 716 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 811 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 21,8 %) Navoiy shahriga, 612 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 460 tasi (12,4 %) Xatirchi tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Jami faoliyat yuritayotgan**



**Jami yangi tashkil etilgan**



**yangi tashkil etilgan**

**faoliyat yuritayotgan**